
Mahalla obodligiga yoshlarning hissasi



Mahalla obodligiga yoshlarning hissasi

Mahalla obodligi – buyuk Vatan obodligidir. Mahallalarimiz, yashayotgan manzillarimiz, uyimiz, xonadonlarimiz obod bo'lsa, ko'ngillarimizda ham xotirjamlik maskan topadi. "Bizning mahallamizda saxovatpesha homiylar tomonidan Ramazon Hayitii arafasida katta ish amalga oshirildi. Mahalla qabristoniga tutash bino va inshootlar qo'li gul yosh ustalar tomonidan ta'mirlandi va bu binolar endilikda mahalla ko'rkiga o'zgacha chiroy bag'ishlamoqda. Mahallada yashovchi 1980 yilda tug'ilgan yoshlar homiyligida ushbu binolar qayta ta'mirlandi. Ularga mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi aholi nomidan minnatdorchilik bildiramiz" – deydi Sarikanda mahalla fuqarolar yig'ini raisi Bahodir Safoev.



Darhaqiqat, mamlakatimizda nomoddiy-ma'naviy inshootlarni asrash va ularni obodonchiligiga alohida e'tibor qaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bilan ham ahamiyatlidir. Qabristonlarni obod etish, ajdodlarimiz makon topgan go'shalarni hamisha toza va pokiza tutish o'tganlarga nisbatan ko'rsatilgan izzat va hurmat belgisi, shuningdek, boy va umrboqiy qadriyatlarni asrash demakdir. Mahallalarimizdagi obodlik va ozodalikka hissa qo'shayotgan barcha insonlarga omad yor bo'lsin.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-25 10:35:39